

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Karimov Bobir “MAHALLABAY” ISHLASH TIZIMI NEGIZIDA INSON SALOHİYATINI RO‘YOBGA CHIQRISH KOMPETENSIYALARI.....	5
2. Kulbekova Nasiba INSON SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA TA’LIM TIZIMINING O‘RNI.....	12
3. Инаков Комил, Абдугафурова Чарос МОЛОДЕЖЬ КАК РЕСУРС РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА.....	19
4. Узакова Зарина ПОТРЕБНОСТИ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ (ЧС): РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА.....	27
5. Dulanbayeva Oygul MUALLIFLIK STRATEGIYASI ZAMONAVIY MUTOLAA DIDINI SHAKILLANTIRISH MEKANIZMI SIFATIDA.....	34
6. Hojiyev Zavqiddin DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	40
7. To‘raev Odiljon AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH ORQALI IJTIMOIIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	50
8. To‘raxo‘jaeva Ra‘no DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI XODIMLARINING MAXSUS KOMPETENSIYALARI.....	59
9. Abdikadirova Nigora INSON SALOHİYATI: NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	66
10. Tadjikhojaev Botir DAVLAT BOSHQARUVIDA XARIZMATIK SHAXSLAR FAOLIYATINING SOSIOLOGIK TAHLILI.....	71
11. Xolmurodov G‘ulom O‘ZBEKISTONDA MAHALLA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	78
12. Axmedova Shaxnozaxon OILA-NIKOH MUNOSABATLARINI O‘RGANISHDAGI SOTSIOLOGIK NAZARIY YONDASHUVLAR.....	91

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ


ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Xolmurodov G'ulom,

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

e-mail: xolmurodov6994@gmail.com

О'ЗБЕКИСТОНДА МАХАЛЛА FAOLIYATI SAMARADORLIGINI SOTSIOLOGIK TAHLILI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15132720>

ANNOTASIYA

Bugun O'zbekistonda mahalla tizimiga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgardi. Zero, bu aholi bilan bevosita ishlashning eng samarali va an'anaviy mexanizmidir. Xalq bilan muloqotning bunday usulini boshqacha qilib mahallabay ishlash tizimi, deb atayamiz. Ushbu maqolada Toshkent shahri va Toshkent viloyati, Jizzax viloyati, Samarqand viloyati, Qashqadaryo viloyati, Xorazm viloyati, Farg'ona viloyati, Namangan viloyatlarida mahalliy boshqaruv tizimlari samaradorligini oshirish, aholini ijtimoiy himoya qilishda o'z o'zini boshqarish organlari ahamiyatini o'rganish maqsadida "O'zbekistonda mahalla faoliyati samaradorligini sotsiologik tahlili" mavzusida anketa so'rovnomasi o'tkazilib, ulardan olingan natijalar tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: mahalla xizmatlari, yangi ish o'rinlar, mehnat bozori, ijtimoiy barqarorlik, respondent, ijtimoiy xodim, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori.

Холмуродов Гулом,

Преподаватель Национального
университета Узбекистана

e-mail: xolmurodov6994@gmail.com

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

Сегодня в Узбекистане кардинально изменилось внимание к системе махалли. Ведь это наиболее эффективный и традиционный механизм непосредственной работы с населением. Такой способ общения с народом мы иначе называем системой работы по махалле. В данной статье проведён анкетный опрос по теме «Социологический анализ эффективности деятельности махалли в Узбекистане» в городе Ташкент, а также в Ташкентской, Джизакской, Самаркандской, Кашкадарьинской, Хорезмской, Ферганской и Наманганской областях с целью изучения эффективности местных органов управления и значимости самоуправляющихся органов в социальной защите населения. Полученные результаты были проанализированы.

Ключевые слова: махаллинские службы, новые рабочие места, рынок труда, социальная стабильность, респондент, социальный работник, лидер молодежи, инспектор профилактики.

Kholmurodov Gulom,

Lecturer at the National University of Uzbekistan

e-mail: xolmurodov6994@gmail.com

**SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF MAHALLA ACTIVITIES
IN UZBEKISTAN****ABSTRACT**

Today in Uzbekistan, attention to the mahalla system has changed dramatically. After all, this is the most effective and traditional mechanism for direct work with the population. This way of communicating with the people, we otherwise call the mahalla work system. In this article, a survey titled “Sociological Analysis of the Efficiency of Mahalla Activities in Uzbekistan” was conducted in Tashkent city and Tashkent, Jizzakh, Samarkand, Kashkadarya, Khorezm, Fergana, and Namangan regions to study the effectiveness of local governance systems and the significance of self-governing bodies in social protection. The results obtained from the survey were analyzed.

Keywords: mahalla services, new job opportunities, labor market, social stability, respondent, social worker, youth leader, prevention inspector.

KIRISH

Bugungi kunda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga jahonda katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada Xalqaro Mehnat Tashkilotining “Ijtimoiy ta‘minotning minimal me‘yorlari to‘g‘risida”gi 102-sonli konvensiyasi [1], Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” [2], “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt [3] kabi me‘yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ularni monitoringi olib borilmoqda. Jahonning yirik ilmiy markazlari Garvard Universiteti [4], London iqtisodiyot maktabi [5], Osiyo taraqqiyot banki [6], Bruking instituti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti [7], Kopengagen kelajak tadqiqotlari institutlari tomonidan o‘z o‘zini boshqarish institutlarining rivojlantrish dinamikasi, o‘z-o‘zini boshqarish organlari faoliyatining samaradorligini oshirish ko‘rsatkichlari, aholini ijtimoiy himoya qilishda o‘z o‘zini boshqarish organlari tomonidan samarali texnologiyalarni qo‘llash kabi muammolarga e‘tibor qaratilmoqda va konstruktiv taklif tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Xususan, Garvard Universiteti mahalliy boshqaruv samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalar va innovatsion boshqaruv modellarini ishlab chiqishda katta rol o‘ynaydi. Universitetning Garvard Kennedi maktabi, davlat boshqaruvi va siyosatni o‘rganish, ijtimoiy tizimlarni modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali mahalliy boshqaruv tizimlari samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib bormoqda. Garvard Kennedi maktabi tomonidan davlat organlari va mahalliy boshqaruvni fuqarolarga xizmat ko‘rsatishining yanada ishonchli va tezkorlik bilan amalga oshirishga qaratilgan elektron boshqaruv tizimi (E-hukumat) joriy etildi [8]. Ushbu elektron boshqaruv tizimi davlat va mahalliy boshqaruv organlariga fuqarolar bilan samarali muloqot o‘rnatish, xizmatlarni tez va oson taqdim etish imkoniyatini beradi. Bular orqali ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlarni modernizatsiya qilish, samaradorlikni oshirish va fuqarolarni boshqaruv jarayonlariga jalb etish mumkin. Shu bilan birga, elektron boshqaruvni joriy etish orqali davlat organlari o‘z xizmatlarini yanada shaffof va ishonchliligi oshirishga xizmat qilmoqda.

Elektron boshqaruv tizimi O‘zbekiston Respublikasida davlat va mahalliy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mamlakatda raqamli texnologiyalar (E-hukumat)ni davlat va mahalliy boshqaruvida joriy etish bo‘yicha “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [9], “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” (my.gov.uz), Elektron identifikatsiya va elektron imzo tizimlari kabi tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ushbu tashabbuslar davlat xizmatlarini avtomatlashtirish, shaffoflikni ta‘minlash va boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

METODOLOGIYA

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda mahalla institutini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar olib borilib, ularning negizida inson va uning manfaatlari yotadi. Chunki aynan mahalla fuqarolarining ijtimoiy holatini aniqlab, bu borada konstruktiv mexanizmlarini qo‘llash imkoniyatiga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Barchamizga ma’lumki, islohotlarimiz natijalari, bo‘layotgan o‘zgarishlar va aholining kayfiyati, avvalo, mahallada seziladi. Shu ma’nodagi, “Mahalla - jamiyatimizning yorug‘ yuzi va vijdoni ko‘zgusi” desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Shuning uchun barcha darajadagi rahbarlar pastga tushib, o‘z sohasi bo‘yicha mahallalardagi muammolarni o‘rganishi va ularga yechim topishi, natijani ta’minlashi shart.

Mahalladagi ishlarning ahvoli vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashda bosh mezon bo‘ladi. Shuningdek, mahallaning nufuzini, uning resurs va imkoniyatlarini ko‘paytirish, xodimlarining moddiy ta’minotini yaxshilash bo‘yicha dasturni samarali amalga oshirish zarur”, [10] degan fikrlaridan kelib chiqib aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda mahalla institutning o‘rnini sotsiologik tadqiqot qilinishi mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

O‘zbekistonda mahalla faoliyati samaradorligini sotsiologik tahlili mavzusida olib borilgan tadqiqotimizda 1200 ta respondent Toshkent shahri va Toshkent viloyati, Jizzax viloyati, Samarqand viloyati, Qashqadaryo viloyati, Xorazm viloyati, Farg‘ona viloyati, Namangan viloyatlaridan Yorqinhayot, Olchazor, Do‘stlik, Yangi Darxon, Mash‘al, Alisher Navoiy, Yangi obod, Nurafshon, Saodat, Ko‘k-ota, Charxin, Sarbozor, Totkent, Oqtosh, Xorazm viloyatidan Binokor, Umid, Al-Xorazmiy, Mustaqillik, Qo‘shko‘pir, Ibn Sino, Buyuk zamin, Yuksalish, Tolmazor Bog‘, Guliston, Ipak yo‘li, Do‘stlik, Birlilik, Ilg‘or, Gulzor, Bo‘ston, Jomiy, Turon, Toshloq, Shodlik, Navro‘z, Madaniyat, G‘alaba, Sohibqiron, Oqsaroy, Chim, Navoiy, Qishliq, Munchoq, To‘da, O‘rikzor, Gulobod nomli mahallalarda tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning yosh jihati bo‘yicha quyidagicha taqsimlangan: eng katta guruh – 30-40 yosh – 27%, bu yoshdagi odamlar mehnat faoliyatining eng yuqori nuqtasiga ega va turli ijtimoiy muammolarga ko‘proq duch kelishadi. Ularning fikri iqtisodiy, ijtimoiy va oilaviy masalalarda muhim hisoblanadi. 50-60 yosh guruhi 26%ni tashkil etdi. Bu yosh toifasi maxalla faoliyatiga ko‘proq aralashadi va jamoat ishlarida faoldir. Ular uchun tibbiy xizmat, ijtimoiy himoya va nafaqa masalalari muhim ahamiyatga ega. 18-30 yosh guruhi 24%ni tashkil etgan. Yoshlar so‘rovnomada faol ishtirok etgan, bu esa ularning mahalla hayotiga qiziqishi borligini ko‘rsatadi. Bandlik, ta’lim va kasb-hunar rivoji ular uchun asosiy masalalardan biridir. 40-50 yosh guruhi 23% dir. Bu guruh ish va oilaviy majburiyatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash masalalariga e’tibor qaratish uchun muhim. Ularning fikri ham iqtisodiy masalalar va ijtimoiy barqarorlik nuqtayi nazaridan muhimdir. Barcha yosh guruhlari teng taqsimlangan, bu esa so‘rov natijalarining obyektiv bo‘lishini ta’minlaydi. Yosh jihatidan kelib chiqib qo‘yidgilar aniqlandi, yoshlar uchun ishga joylashish va ta’lim imkoniyatlarini oshirish – 18-30 yoshlilar mehnat bozoriga kirishi va malaka oshirishi uchun dasturlar kerak. 30-40 yoshlilar uchun tadbirkorlik va iqtisodiy barqarorlik dasturlarini rivojlantirish – bu guruh oila va ish o‘rtasida muvozanatni saqlashga ko‘proq e’tibor qaratadi. 40-50 yoshlilar uchun ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash masalalarini yaxshilash – kasbiy faollik davrining so‘nggi bosqichida ularning tibbiy ko‘rik va ta’minotiga e’tibor qaratish zarur. 50-60 yoshlilar uchun pensiya, ijtimoiy faollik va sog‘liqni saqlash imkoniyatlarini kengaytirish – ular jamoat ishlarida faol bo‘lishi uchun imkon yaratish kerak.

So‘rovda erkaklar va ayollar deyarli bir xil ishtirok etgan. Bu tadqiqot natijalarida jins bo‘yicha xolis taqsimot ta’minlanishi uchun harakat qilingan va jinsiy balans hurmat qilingan va har ikki jins ham bir xil darajada o‘z fikrini bildirgan. Jumladan, ayollar 591 kishi (49,2%), erkaklar esa 609 kishi (50,8%). Mahalla xizmatlari, ziddiyatlar va infratuzilma masalalarini jins bo‘yicha tahlil qilish – erkak va ayollarning qaysi masalalarga ko‘proq e’tibor qaratishini aniqlashda yordam berdi.

Tadqiqotimizdagi respondentlar ma’lumoti bo‘yicha tanlovida eng katta ulush – o‘rta-maxsus ma’lumotlilar (35%) bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich kasb-hunar kollejlari, texnikumlar yoki maxsus o‘quv muassasalarini bitirganlar katta qismni tashkil etishini ko‘rsatadi. Bunday respondentlar ko‘pincha amaliyotga asoslangan kasblarda faoliyat yuritadi. O‘rta ma’lumotlilar 34%ni tashkil etib, maktab ta’limi bilan cheklanganlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Oliy ma’lumotlilar 22%ni tashkil etdi va bu natija maxalla aholisining faqat bir qismi oliy ta’limga ega ekanini ko‘rsatadi. Hech qanday ma’lumotga ega bo‘lmaganlar 6%ni tashkil etishi katta yoshli respondentlarni tashkil etdi.

Ishsizlik darajasi yuqori (59%) ekanligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich jamiyatda mehnat bozorida muammolar borligini ko'rsatadi. Ishsizlik darajasi yuqori bo'lishi ehtimolan mehnat bozoridagi imkoniyatlar cheklanganligi, ish o'rinlari yetishmasligi yoki malaka muammolari bilan bog'liq. Ish bilan bandlar ulushi (41%). Bu natija jamiyatning salmoqli qismi ishga ega ekanini ko'rsatadi, lekin bu hali ham barqaror mehnat bozori uchun kam ko'rsatkich hisoblanadi. Ishlaydiganlar asosan davlat sektori, xususiyl tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritishi aniqlandi.


Fikrimizcha, yangi ish o'rinlarini yaratish – mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish; Kasb-hunarga o'qitish va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish – ishsizlarning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshirish; Frilans va masofaviy ish imkoniyatlarini targ'ib qilish – raqamli iqtisodiyotda faol ishtirok etish uchun sharoitlar yaratish; Yoshlar va ayollar uchun maxsus dasturlar tashkil qilish – mehnat bozoridagi tenglikni ta'minlash va barqarorlikni oshirish borasida qator tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotimizda ishtirok etgan respondentlarning 8%da nogironlik borligi aniqlandi. Bu aholi ichida nogironligi bor shaxslarning muayyan qismni tashkil etishini ko'rsatadi. Bunday shaxslar uchun maxsus ijtimoiy himoya va infratuzilma imkoniyatlarini yaxshilash zarur. Nogironligi bor shaxslarning mehnat bozoridagi ishtirokini oshirish uchun inklyuziv ish o'rinlari va kasbiy tayyorgarlik dasturlarini rivojlantirish kerak. Qolgan 92% respondentlar nogironlikka ega emas. Bu ko'pchilik aholining normal mehnat faoliyati va ijtimoiy hayotda ishtirok etishi mumkinligini ko'rsatadi. Biroq, jamiyatda nogironligi bor shaxslarning ehtiyojlarini inobatga olish va ular uchun teng imkoniyatlar yaratish muhimdir.

Tadqiqotda ishtirok etgan ko'pchilik respondentlar (71%) oila qurgan. Bu jamiyatda oilaviy munosabatlar mustahkamligini ko'rsatadi. Oila qurganlar ko'p bo'lishi mahalla hayotida ijtimoiy barqarorlik uchun ijobiy omil hisoblanadi. Oila qurmaganlar ulushi 20%ni tashkil etdi. Bu yoshlar yoki muayyan sabablarga ko'ra oila qurmagan shaxslarni o'z ichiga oladi. Ajrashganlar ulushi 9%. Ajrashganlar nisbatan kam, lekin bu ko'rsatkich turli ijtimoiy va iqtisodiy muammolar bilan bog'liq. Oilaviy muammolarni kamaytirish uchun psixologik maslahat va oila mustahkamligi dasturlarini kuchaytirish zarur.


Tadqiqotimizda “Aholi va mahalla rahbariyati o'rtasidagi munosabatlarni qanday baholaysiz?” degan savol bilan murojaat qilinganda eng ko'p tarqalgan javob – “o'rta” (423 kishi), bu esa aholining aksariyati mahalla rahbariyati bilan munosabatlarni to'liq ijobiy deb hisoblamasligini, ammo ularni muammoli ham deb ko'rsatmasligini anglatadi. Demak, aholining katta qismi munosabatlarni o'rtacha, deb baholaydi. Ijobiy munosabat bildirganlar (310 kishi) – Bu esa aholining taxminan 26% i mahalla rahbariyati bilan yaxshi aloqada ekanini ko'rsatadi. Bu nisbatan yuqori ko'rsatkich, ammo umumiy qoniqish darajasi hamon mukammal emas. Qoniqarsiz deb baholaganlar (276 kishi, taxminan 23%) – bu respondentlarning salmoqli qismi mahalla rahbariyati bilan munosabatlardan norozi ekanini anglatadi. Qoniqarli deb baholaganlar (191 kishi, taxminan 16%) – bu guruh aloqalar kamchiliklarga ega ekanini bildiradi, ammo ularni butunlay yomon deb baholamaydi (1-rasm).

Demak, mahalla rahbariyati bilan munosabatlar o'rtacha darajada deb baholanmoqda. Aholining to'liq qoniqish darajasi yuqori emas, ijobiy munosabat bildirganlar 26% ni tashkil qiladi. Qoniqarsiz deb baholaganlar ulushi ham ancha katta (23%), bu esa mahalla rahbariyati va aholi o'rtasidagi muloqotni yanada samarali qilish zarurligini ko'rsatadi. Muammolarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida mahalla institutidagi islohotlar va rahbariyatning aholi bilan aloqalarini kuchaytirish talab qilinadi.




1-rasm. Aholi va mahalla rahbariyati o'rtasidagi munosabatlari

“Mahallaga qilgan murojaatlaringiz ko‘rib chiqish jarayonlari odatda qancha vaqt oladi?” degan savolning javobicha – 7-15 kun (48%) tashkil etilishi aniqlandi (2-rasm). Bu shuni ko‘rsatadiki, aksariyat respondentlar mahalla rahbariyatiga qilgan murojaatlari bir haftadan ikki haftagacha vaqt olishini ta’kidlashgan. Bu juda uzoq muddat bo‘lmasa-da, ayrim holatlarda tezkorlik talab qilinadigan masalalar uchun bu kechikishga olib kelishi mumkin. 25% respondentlar murojaatlari 2-7 kun ichida ko‘rib chiqilgan. Bu chaqqon ishlov berish amaliyoti mavjudligini ko‘rsatadi, ammo hali ham murojaatlarni tezkor hal qilishda kamchiliklar bor. 12% respondentlar murojaatlari 15-25 kun davomida hal qilinishini bildirgan. Bu ko‘rsatkich murojaatlar ayrim hollarda ancha uzoq vaqt davomida ko‘rib chiqilayotganini ko‘rsatadi. 15% respondentlarning murojaati 25 kundan oshiq davom etadi. Bu juda kechiktirilgan holatlar bo‘lib, mahalla rahbariyati va aholi o‘rtasidagi byurokratik to‘siqlar mavjudligini ko‘rsatishi mumkin.



2-rasm. Mahallaga qilgan murojaatlaringiz ko‘rib chiqish jarayonlari odatda qancha vaqt oladi


Respondentlarimizga “Mahallalarning yettilik tizimi borasida sizning xabaringiz bormi?” degan savol natijasiga ko‘ra, maallalarning yettilik tizimi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lganlar 29%ni tashkil etdi (3-rasm). Bu degani, respondentlarning uchdan biri ushbu tizimdan to‘liq xabardor. Bu yaxshi ko‘rsatkich bo‘lsa-da, aholining katta qismi bu borada to‘liq tushunchaga ega emas. Qisman xabardor bo‘lganlar – 32%. Ya’ni, jami 61% (29% + 32%) aholi ushbu tizim haqida ma’lumotga ega, lekin ularning katta qismi faqat qisman xabardor. Bu ma’lumot tarqatish va tushuntirish ishlari hali ham kam ekanligini ko‘rsatadi. Hech qanday ma’lumotga ega bo‘lmaganlar – 33%. Aholining uchdan bir qismi ushbu tizim haqida hech qanday ma’lumotga ega emas. Bu esa mahallalarda tushuntirish va targ‘ibot ishlari yetarlicha olib borilmayotganini ko‘rsatadi. Javob berishga qiynalganlar – 6%ni tashkil etmoqda. Bu guruh ushbu masala bo‘yicha fikr bildirishga qiynalayotganini ko‘rsatadi, balki ular tizimning ahamiyati yoki maqsadini tushunmayotgandir. Tizim haqida hech qanday ma’lumotga ega bo‘lmaganlar uchun maqsadli ishlarni amalga oshirish – Mahalla faollari va hokim yordamchilari orqali ushbu guruhga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushuntirish ishlarini olib borish zarur.



3-rasm. Respondentlarning mahallalarning yettilik tizimi borasida xabardorlik holati


Mahallada faoliyat olib boruvchi mutasaddi shaxslarning fuqarolarga yordam berish xolati tadqiq qilinganda aniqlandiki, eng ko‘p yordam ko‘rsatgan shaxs – xotin-qizlar faoli (25%) (4-rasm). Bu ko‘rsatkich mahallalarda ayollar muammolarini hal qilish bo‘yicha ishlar samarali yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi. Xotin-qizlar faoli mahallada faol ishtirok etib, asosan ayollar va ijtimoiy zaif qatlamlarga ko‘maklashadi. Mahalla raisi (23%) – Mahalladagi eng asosiy rahbar sifatida aholiga yordam berayotgan muhim shaxslardan biri. Bu natija mahalla institutining muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi, ammo 25%lik xotin-qizlar faoli natijasi uni ortda qoldiradi. Ijtimoiy xodim (12%) – Bu

shaxslar ham aholining muammolarini hal etishda samarali rol o'ynaydi. Hali ham kamchilik bor, chunki ijtimoiy himoya asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Hech kimdan yordam olmaganlar (11%) – Bu ko'rsatkich juda muhim! Mahallada yordam ola olmaganlar ulushi 10% dan oshgani ehtiyojmand aholi uchun xizmat ko'rsatishda kamchiliklar borligini ko'rsatadi. Yoshlar yetakchisi va profilaktika inspektori (9%) – Yoshlar bilan ishlashdagi muhim shaxslar hisoblanadi, ammo yoshlar yetakchisidan yordam olganlar soni past ekan. Bu yoshlar bilan ishlashni yanada kuchaytirish kerakligini ko'rsatadi.




4-rasm. Mahallada faoliyat olib boruvchi mutasaddi shaxslarning fuqarolarga yordam berish holati

Fuqarolarning mahalla hayotida ishtirok etish holati o'rganildi va ma'lum bo'lishicha, mahalla hayotida to'liq ishtirok etuvchilar soni juda kam – 6% (5-rasm). Bu mahallalarda aholining faolligi past ekanligini ko'rsatadi. Mahalla hayotiga jalb qilish mexanizmlari yetarlicha samarali emas. Ba'zi hollarda ishtirok etuvchilar – 21%. Bu odamlar mahalladagi muayyan tadbirlarda ishtirok etishi mumkin, lekin doimiy ravishda emas. Bu ko'rsatkichni oshirish uchun mahalla faollarini jalb qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Vaqt yetmasligi sababli qatnashmaydiganlar –15%. Bu ish bilan bandlik, shaxsiy hayot yoki boshqa majburiyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Mahalla hayotini ko'proq jamoatchilik ishlari bilan uyg'unlashtirish kerak. Mahalla hayotida ishtirok etmaydiganlar ulushi eng katta – 58% Bu eng jiddiy muammolardan biri. Demak, odamlar mahallani jamoaviy hayotning muhim qismi deb hisoblamaydilar.




5-rasm. Fuqarolarning mahalla hayotida ishtirok etishi

“Mahalla hayoti haqida qayerdan ma'lumot olasiz?” deb murojaat etganimizda aniqlandiki, ijtimoiy tarmoqlar – eng asosiy axborot manbai (45%) (6-rasm). Bu aholining katta qismi mahalla hayoti haqida masofaviy (telegram guruhi) manbalar orqali xabardor bo'lishini ko'rsatadi. Bu tendensiya raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kerakligini anglatadi. Qo'niqo'shnildan ma'lumot oladiganlar (18%). Mahallalarda shaxsiy muloqot va an'anaviy axborot tarqatish usullari hali ham borligini ko'rsatadi. Biroq, bu usul hozirgi axborot texnologiyalari davrida kamroq samaradorlikka ega. Ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumot oladiganlar soni juda kam (2%). Bu mahalla faoliyati OAV orqali targ'ibot qilinmayotganini ko'rsatadi. Mahalla faoliyati haqida xabarlar va maqolalar chop etishni kuchaytirish zarur. Hech qayerdan ma'lumot olmaydiganlar ulushi juda yuqori – 37%. Bu respondentlar umuman mahalla hayotiga qiziqmaydi yoki axborot tarqatish tizimi yetarli emasligini ko'rsatadi. Bu eng katta muammolardan biri, chunki jamoatchilik ishtirokini kamaytirib yuboradi.



6-rasm. Respondentlarning mahalla faoliyati haqidagi ma'lumotlarni olish manbasi


Tadqiqot jarayonida “Mahallada faoliyat olib boruvchi mutaxassislarni darajasini qanday baholaysiz?” deb nomlangan savol berildi, va ushbu savol natijalariga ko‘ra faqat 21% respondentlar mahalla mutaxassislarni professional deb hisoblaydi (7-rasm). Bu juda kam ko‘rsatkich bo‘lib, mahallada ishlaydigan mutaxassislar malakasini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Eng ko‘p tarqalgan javob – “Ularning ba’zilarida bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligi kuzatiladi” (29%). Bu shundan dalolat beradiki, mutaxassislarning ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qo‘shimcha o‘quv va malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur. 20% respondentlar mutaxassislarning o‘z ishini yaxshi tushunmasligini ta’kidlagan. Bu esa mutaxassislarning ish sifati aholining katta qismi uchun qoniqarsiz ekanligini ko‘rsatadi. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun mahalla xodimlari uchun muntazam malaka oshirish kurslari va treninglar tashkil etish kerak. Juda katta ulush (30%) – “Men bu haqida o‘ylab ko‘rmaganman”. Bu aholining katta qismi mahalla xodimlari ishiga qiziqmaydi yoki ularning faoliyati haqida ma’lumotga ega emasligini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichni kamaytirish uchun mahalla faoliyatini aholiga kengroq tanishtirish, ularning fikrini so‘rash va oshkora muhokama qilish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.



7-rasm. Respondentlarning mahallada faoliyat olib boruvchi mutaxassislarni darajasini baholash ko‘rsatkichlari


Mahalla ko‘chalarining holatini baholashga qaratilgan savolimiz natijasiga ko‘ra eng katta muammo – yo‘llar holati qoniqarsiz (54%) ekanligi aniqlandi (8-rasm). Respondentlarning yarmidan ko‘pi mahalla ko‘chalarida harakatlanish juda qiyin ekanini ta’kidlagan. Bu infratuzilma muammolarini hal qilish uchun katta ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Qisman qulay deb baholaganlar (22%). Bu guruhdagi respondentlar ko‘chalar muayyan joylarda yaxshi, lekin hali ham muammolar borligini qayd etgan. Bu shahar va qishloq mahallalaridagi yo‘llar holati turlichadur, chunki faqat 13% respondentlar yo‘llarni juda qulay deb baholagan. Bu ko‘rsatkich mahallalarda sohasiy infratuzilmaga katta e’tibor qaratish kerakligini ko‘rsatadi. Boshqa fikr bildirganlar (11%). Bu

guruhdagi odamlar yo'llarni turli sabablarga ko'ra baholagan bo'lishi mumkin, masalan, mavsumiy sharoitlar yoki yo'l ta'mirlash ishlari.




8-rasm. Mahalla ko'chalarining holatini

Respondentlarga “Siz istiqomat qilayotgan mahallada kommunal xizmat ko'rsatish darajasini qanday baholaysiz?” degan savol bilan murojat qilindi va aniqlandiki, eng katta muammo – kommunal xizmatlardan norozilik (49%). Bu respondentlarning yarmidan ko'pi mahallada kommunal xizmatlar qoniqarsiz ekanligini ta'kidlaganini ko'rsatadi. Bu eng katta muammolardan biri bo'lib, aholi hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (9-rasm). Qoniqarli deb baholaganlar – 22%. Bu guruh kommunal xizmatlarning muayyan muammolari borligini tasdiqlaydi, lekin ular to'liq yomon emas. Bu degani, ayrim mahallalarda xizmat sifati biroz yaxshiroq. Faqat 11% aholi kommunal xizmatlardan to'liq qoniqadi. Bu ko'rsatkich kommunal xizmatlar sifati past ekanligini va katta e'tibor talab qilishini ko'rsatadi. Boshqa fikr bildirganlar (18%). Bu guruh kommunal xizmatlar bo'yicha turlicha fikrda bo'lishi mumkin. Masalan, ba'zi xizmatlar yaxshi, boshqalari yomon yoki mavsumiy muammolar bor.




9-rasm. “Siz istiqomat qilayotgan mahallada kommunal xizmat ko'rsatish darajasini qanday baholaysiz?”

Mahallalarda sanitar-gigiyenik holati o'rganildi. Aniqlanishicha, ko'pchilik respondentlar sanitar-gigiyenik holatni “o'rtacha”, (41%) deb baholagan (10-rasm). Bu shundan dalolat beradiki, mahallalarda sanitar-gigiyenik holat mutlaqo yomon emas, ammo uni yaxshilash kerak. Bunday natija, ehtimol, sanitariya xizmatlari muntazam ravishda ishlayotganini, ammo ayrim kamchiliklar borligini ko'rsatadi. Yomon deb baholaganlar (22%). Bu ko'rsatkich sanitar-gigiyena holati juda yomon bo'lgan mahallalar borligini ko'rsatadi. Mahallalarda chiqindilarni to'plash va tozalash tizimi bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lishi mumkin. Faqat 19% respondentlar sanitar holatni “juda yaxshi” deb baholagan. Bu aholining kam qismi sanitar-gigiyenik muhitdan qoniqqanini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichni oshirish uchun sanitar xizmatlar samaradorligini yaxshilash kerak. Boshqa (17%) javoblarni ham bergan. Bu guruh sanitar-gigiyena bo'yicha o'z fikrini aniq ifodalay olmagan yoki turlicha sabablarga ko'ra fikr bildirgan respondentlarni tashkil topdi.



10-rasm. Mahallalarda sanitar-gigiyenik holati

Mahallada bolalar o'yingohlar sifati qanday ekanligi o'rganildi. Natijada, 48% aholi bolalar o'yingohlari bor, ammo muayyan muammolar bor, deb hisoblaydi (11-rasm). Demak, ko'plab mahallalarda bolalar uchun joylar mavjud, lekin ularni takomillashtirish kerak. Muammolar texnik xizmat ko'rsatish, xavfsizlik yoki jihozlarning eskirganligi bilan bog'liq. 29% respondentlar o'yingohlar bor, lekin ular sifati past deb baholagan. Bu esa o'yingohlar miqdor jihatidan mavjud bo'lishiga qaramay, ulardan foydalanish imkoniyati cheklanganini ko'rsatadi. Masalan, buzilgan jihozlar, xavfsizlik choralarining yo'qligi, eskirgan o'yin maydonchalari kabi muammolar. Faqat 17% respondentlar bolalar o'yingohlarini juda qulay va sifatli deb baholagan. Bu ko'rsatkich past bo'lib, sifatli bolalar infratuzilmasi kamligini ko'rsatadi. 6% respondentlar mahallada umuman bolalar o'yingohlari yo'qligini bildirgan. Bu eng muhim muammolardan biri, bolalar uchun dam olish joylari bo'lmagan mahallalar borligini ko'rsatadi. Bunday vaziyatda bolalar xavfli joylarda o'ynashga majbur bo'lishi yoki ko'chada ko'proq vaqt o'tkazishi mumkin.




11-rasm. Mahallalardagi bolalar o'yingohlar sifati

Mahallalarda bo'sh vaqtinigizni o'tkazish uchun yaratilgan sharoitlar o'rganildi. Unga ko'ra, eng katta muammo – 52% aholi mahallada bo'sh vaqtni o'tkazish uchun hech qanday imkoniyat yo'q deb hisoblaydi (12-rasm). Bu juda jiddiy muammo, chunki aholining yarmidan ko'pi mahallada madaniy va dam olish joylari yetishmasligidan norozi. Bu ayniqsa, yoshlar va nafaqaxo'rlar uchun salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. 35% respondentlar mavjud shart-sharoitlarni “o'rtacha”, deb baholagan. Bu ko'rsatkich mahallalarda ayrim imkoniyatlar borligini, ammo ularni yaxshilash kerakligini ko'rsatadi.


Masalan, mavjud bog'lar, sport maydonchalari, madaniy maskanlar yaxshi holatda emas yoki ular kamdan-kam hollarda foydalaniladi. Faqat 5% aholi bu sohani “juda yaxshi”, deb baholagan. Bu juda past ko'rsatkich bo'lib, mahallalarda madaniy va sport ob'ektlarining yetishmasligi katta muammo ekanligini ko'rsatadi. Bu degani, mahallalarda aholi uchun jozibali va sifatli dam olish maskanlari deyarli mavjud emas. 8% respondentlar “boshqa” javobini tanlagan. Bu guruhdagi

odamlar o'z mahallalarida maxsus dam olish joylari mavjud yoki mavjud emasligini aniqroq izohlash mumkin.




12-rasm. Mahallalarda bo'sh vaqtingizni o'tkazish uchun yaratilgan sharoitlar

Mahallada aholiga xizmat ko'rsatish darajasi o'rganildi va 39% respondentlar mahallada xizmat ko'rsatishni "yaxshi", deb baholagan (13-rasm). Bu ko'rsatkich ayrim mahallalarda xizmat ko'rsatish tizimi nisbatan yaxshi ekanini ko'rsatadi. Ammo umumiy qoniqish darajasi yetarli darajada emas, chunki 32% "yomon darajada", deb baholagan. Faqat 11% aholi xizmat ko'rsatishni "juda yaxshi" deb baholagan. Bu sifatli xizmatlar juda kam ekanini ko'rsatadi. Demak, mahalla xizmatlarini standartlar bo'yicha oshirish zarur. 32% aholi xizmat ko'rsatishni "yomon darajada", deb baholagan. Bu mahallalardagi xizmatlarning tartibga solinishida muammolar borligini anglatadi. Ba'zi hududlarda tashkilotlar, davlat xizmatlari yoki ijtimoiy xizmatlar o'z vazifalarini to'liq bajarmayotgan bo'lishi mumkin. 18% aholi mahallada umuman hech qanday xizmat ko'rsatilmashligini ta'kidlagan. Bu juda xavotirli raqam, chunki ayrim mahallalarda davlat va ijtimoiy xizmatlar umuman ishlamasligi mumkin. Bu respondentlar asosan uzoq hududlar yoki xizmatlar hanuz rivojlanmagan mahallalardan bo'lishi mumkin.




13-rasm. Mahallada aholiga xizmat ko'rsatish darajasi

Mahalla aholisi o'rtasida ziddiyatlar mavjudligi holati o'rganildi. Natijaga ko'ra, 45% aholi mahallada ziddiyatlar ko'p uchrashini ta'kidlagan (14-rasm). Bu ijtimoiy munosabatlarda jiddiy muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Ziddiyatlar turli sabablarga ko'ra bo'lganligi aniqlandi: ijtimoiy adolatsizlik hissi; qo'shnichilik munosabatlaridagi muammolar; ahalla boshqaruvi bilan bog'liq nizolar; tartib-intizom va kommunal xizmatlar bilan bog'liq nizolar. 30% respondentlar ba'zan ziddiyatlar uchrashini ta'kidlagan. Bu mahalladagi munosabatlar mutlaqo muammosiz emas, lekin ular doimiy ravishda ziddiyatlarga olib kelmaydi. Demak, aksar mahallalarda muntazam tushunmovchiliklar va nizolar mavjud. Faqat 9% aholi mahallada hech qanday ziddiyat yo'qligini aytgan. Bu juda kam ko'rsatkich bo'lib, deyarli barcha mahallalarda ma'lum darajada muammolar borligini ko'rsatadi. Kam ziddiyatli mahallalar ko'pincha yaxshi tashkillashtirilgan jamoatchilik nazorati va mustahkam qo'shnichilik munosabatlariga ega bo'lishi mumkin. 16% aholi bu haqda ma'lumotga ega emas. Bu shaxslar mahalla hayotida faol ishtirok etmasligi yoki bevosita ziddiyatlarga duch kelmagan bo'lishi mumkin.




14-rasm. Mahalla aholisi o'rtasida ziddiyatlar mavjudligi holati

Mahalla aholisi o'rtasidagi ziddiyatlarning asosiy sabablari tadqiq etildi (15-rasm). Aniqlanishicha, eng katta ziddiyatlar – yoshlar va katta yoshdagi aholi o'rtasida (31%) mavjud. Bu mahallalarda avlodlar o'rtasidagi tushunmovchiliklar va qarashlar farqi muhim ziddiyat manbasi ekanligini ko'rsatadi. Yoshlar va katta yoshdagilarning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlar va turmush tarzi turlicha bo'lishi mumkin. Bu holat ijtimoiy loyihalar va madaniy tadbirlar orqali hal qilinishi mumkin. Boshqa sabablar (25%). Bu guruh turli sabablarni o'z ichiga olishi mumkin (qo'ni-qo'shnichilik muammolari, kommunal xizmatlar yoki ijtimoiy yordam taqsimoti bo'yicha nizolar, oilaviy yoki shaxsiy ziddiyatlar), milliy va diniy sabablar (20%), bu mahallalarda turli etnik guruhlar yoki diniy qarashlarga ega aholi o'rtasida tushunmovchiliklar mavjud ekanini ko'rsatadi. Bunday ziddiyatlar asosan ma'lumot yetishmasligi yoki noto'g'ri targ'ibot tufayli kelib chiqadi. Bu muammolarni kamaytirish uchun millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni targ'ib qilish kerak. Yer taqsimlash bo'yicha nizolar (19%). Bu ko'rsatkich qishloq hududlarida muhim ahamiyatga ega, chunki yer resurslaridan foydalanish bo'yicha nizolar ko'p uchraydi. Muammolarning asosiy sabablari: yer ajratish jarayonining shaffof emasligi; qo'shnilar o'rtasida yer bilan bog'liq mojarolar; meros masalalari.



15-rasm. Mahalla aholisi o'rtasidagi ziddiyatlarning asosiy sabablari

“Mahallada turli ziddiyatlarni hal etishda kimlar asosiy ta'sir o'tkazadi?” degan savolimizning natijasiga ko'ra (16-rasm), mahalla raisi eng muhim rol o'ynaydi (41%). Bu mahallada nizolarni hal qilishda rahbariyatning asosiy vakolatga ega ekanini ko'rsatadi.



16-rasm. Ziddiyatlarni bartaraf etuvchilar ulushi

Demak, mahalla raislari faol va samarali ish olib borsa, ziddiyatlar kamroq uchrashi mumkin. Keksa yoshdagi fuqarolar ham muhim rol o'ynaydi (35%). Bu mahallalarda hurmat va tajriba muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Keksalar ko'p hollarda norasmiy maslahatchilar va murosachilar sifatida faoliyat yuritishadi. Ijtimoiy xodimlar kamroq ta'sir ko'rsatadi (12%). Bu natija ijtimoiy xodimlarning mavjudligiga qaramay, ularning ziddiyatlarni hal qilishdagi roli cheklanganligini ko'rsatadi. Ijtimoiy xodimlarning aholi bilan ishlashini yaxshilash va ularning ishtirokiga ko'proq ahamiyat qaratish zarur. 12% aholi bu haqda ma'lumotga ega emas. Bu odamlar yoki ziddiyatlarga duch kelmagan, yoki mahallada kim ta'sir ko'rsatishini bilmaydi. Bu aholining mahalla faoliyatidan yetarlicha xabardor emasligini ko'rsatishi mumkin.

XULOSA

Хулоса қилиб айтганда, yangi ish o'rinlarini yaratish – mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish; Kasb-hunarga o'qitish va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish – ishsizlarning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshirish; Frilans va masofaviy ish imkoniyatlarini targ'ib qilish – raqamli iqtisodiyotda faol ishtirok etish uchun sharoitlar yaratish; Yoshlar va ayollar uchun maxsus dasturlar tashkil qilish – mehnat bozorida tenglikni ta'minlash va barqarorlikni oshirish borasida qator tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Aholining uchdan bir qismi ushbu tizim haqida hech qanday ma'lumotga ega emas. Bu esa mahallalarda tushuntirish va targ'ibot ishlari yetarlicha olib borilmayotganini ko'rsatadi. Javob berishga qiynalغانlar – 6%ni tashkil etmoqda. Bu guruh ushbu masala bo'yicha fikr bildirishga qiynalayotganini ko'rsatadi, balki ular tizimning ahamiyati yoki maqsadini tushunmayotgandir. Tizim haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmaganlar uchun maqsadli ishlarni amalga oshirish – Mahalla faollari va hokim yordamchilari orqali ushbu guruhga to'g'ridan-to'g'ri tushuntirish ishlarini olib borish zarur.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, aksar mahallalarda muntazam tushunmovchiliklar va nizolar mavjud. Faqat 9% aholi mahallada hech qanday ziddiyat yo'qligini aytgan. Bu juda kam ko'rsatkich bo'lib, deyarli barcha mahallalarda ma'lum darajada muammolar borligini ko'rsatadi. Kam ziddiyatli mahallalar ko'pincha yaxshi tashkillashtirilgan jamoatchilik nazorati va mustahkam qo'shniçilik munosabatlariga ega bo'lishi mumkin. 16% aholi bu haqda ma'lumotga ega emas. Bu shaxslar mahalla hayotida faol ishtirok etmasligi yoki bevosita ziddiyatlarga duch kelmagan bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda mahalla instituti jamiyatni boshqarish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Olingan sotsiologik anketa so'rov usulini natijalar shuni ko'rsatdiki, mahallalar aholining muammolarini hal etish va ijtimoiy himoyani ta'minlashda samarali vosita hisoblanadi, ammo uning faoliyatini yanada takomillashtirish uchun moliyaviy mustaqillikni oshirish, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish hamda fuqarolarning faolligini kuchaytirish zarur. Shu bois, mahalla tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar davom ettirilishi lozim.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. URL:https://normlex.ilo.org/dyn/nrmlx_en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_INSTRUMENT_ID:312247
2. URL:<https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
3. URL:[https://treaties.un.org/doc/treaties/1976/01/19760103%2009-57%20pm /ch_iv_03.pdf](https://treaties.un.org/doc/treaties/1976/01/19760103%2009-57%20pm/ch_iv_03.pdf)
4. URL:<https://www.harvard.edu/>
5. URL:<https://www.lse.ac.uk/>
6. URL:<https://www.adb.org/>
7. URL:<https://www.oecd.org/en.html>
8. Fountain, Jane. “Electronic Government and Electronic Civics”. KSG Faculty Research Working Papers Series RWP03-001, January 2003. URL:<https://www.hks.harvard.edu/publications/electronic-government-and-electronic-civics>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni. 05.10.2020 yil. URL:<https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B. 91.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000